

3 - Laboratoriya ishi.

Mavzu: Sport mavzusiga oid WEB saytlar yaratish.

Ishdan maqsad: Axborot tarmoqlaridan foydalanish, shaxsiy axborot tizimlari, INTERNET xalqaro axborot tarmog'i va uning imkoniyatlaridan foydalanish malakasini hosil qilish.

Reja:

1. Nazariy qism bilan tanishish:

- a) Internet xalqaro axborot tarmog'i. Qisqacha tarixiy kirish.
- b) INTERNETning ma'muriy tizumi.
- c) Tarmoqlar haqida.
- d) Bank tarmoqlari va banklararo hisob-kitob tizimi.
- e) Potensial iste'molchilar. Internet ga yo'l.

2. Ko'rsatilgan mashqlarni ketma-ket bajaring.

3. Nazorat savollariga javob bering.

1. Kirish

Axborot texnologiyalari va zamonaviy texnika yutuqlari bilan o'zaro almashish ehtiyoji global komputer tarmoqlarini mamlakatlararo hamkorlik dasturini amalga oshirishning ajralmas qismi qilib qo'ydi. Ilmiy va maorif maqsadlari, biznes uchun ko'plab komputer tarmoqlari tashkil etilgan. Ko'plab tarmoqlarni birlashtira oluvchi va dunyo hamjamiyatiga kirish imkonini beruvchi tarmoq bu - Internet. Internet foydalanuvchiga cheksiz axborot resurslarini taqdim etadi. Ushbu resurslarga kirish uchun mos keluvchi amaliy dasturiy ta'minotdan foydalanish kerak. Do'stona grafik interfeysli Internet xizmatidan har bir kishining foydalana olishi uchun imkoniyat yaratadi. Bunday dasturlarning ko'pi foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan Windows OT muhitida ishlaydi. Grafik interfeysli dasturlar muhim xususiyatlarga ega: ular foydalanuvchiga barcha tizimli arxitektura bilan va har qanday komputer platformasida saqlanadigan ma'lumotlar bilan ishlash imkonini beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyasiga hisoblash texnikasidan va elektron uzatish tizimidan foydalanmay turib, zamon talabiga javob beruvchi moliyaviy muassasalarni tashkil etish mumkin emas. Shu bois bunday muassasalar dasturli apparat kompleksi «unikatsiya» vositasi sifatida eng yirik iste'molchilar hisoblanadi. Tashkilotlarning alohida avtomatlashtirilgan komplekslarini bog'lovchi global tarmoqlar milliy va xalqaro darajada hisob-kitoblar o'tkazish imkonini beradi. 20 yil avval AQSH ning mudofaa vazirligi tarmoq ishlab chiqdi - bu INTERNET ning boshlanishi edi va u ARPANET deyilardi.

ARPANET tajriba tarmog'i bo'lib, u xarbiy ishlab chiqarish sferasidagi ilmiy tekshirishlar uchun yaratilgan. Shuningdek, bombardirovka yoki birmuncha nosozliklarda tarmoqlar bemalol ishlashi uchun ham yaratilgan. Bu INTERNETni tuzilishi va strukturasini tushunish uchun kalit beradi. ARPANet da har doim manba komputeri va qabul qiluvchi komputer orasida aloqa bo'ladi.

Prion tarmog'i ishonchsiz deyilardi, chunki tarmoqning har qanday qismi xohlagan paytda uchib ketishi mumkin. Faqat tarmoqqa emas, shuningdek bog'lanayotgan komputerlarga ham aloqani tuzish va qo'llab turish yuklaniladi. Asosiy prinsiplardan biri shuki, har bir komputer boshqa bir komputer bilan tengma-teng bog'lanishi mumkin. Tarmoqda ma'lumotlarni berish INTERNET -IP bayoni asosida tashkil qilingan.

2. INTERNET ning ma'muriy tizimi

Internet tarmoq emas, balki tarmoqlar yig'imi ekanligi alohida bir iste'molchiga ham ta'sir ko'rsatadi. Foydali ish qilish uchun (masalan: dastur yurgizish yoki qandaydir noyob ma'lumotlar olish) ushbu tarmoqlar yig'imining saqlanishi, o'zaro ta'siri, tarmoqlararo aloqalari haqida iste'molchi hal qilishi shart emas.

Namuna qilib telefon aloqasini ko'rishimiz mumkin-u ham o'z yo'lida Internet dir. Aloqa vazirligi, Pasiflc Bell, AT&, MCL, British Telecom, Telefon s de Mexico-bular hammasi turli telefon tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi alohida korporatsiyalardir. Bular hamkorlikda ish olib

borishni, yagona tarmoq tashkil qilishni ta'minlaydilar: siz qayerda bo'lmang, qayerga qo'ng'iroq qilmang - telefon raqamlarini tersangiz bas. Agar narx va reklama inobatga olinmasa, siz uchun MCL-mi, AT&-mi, Aloqa vazirligimi, farqi yo'q. Go'shakni qo'lingizga olib, tugmachalarni bosasiz (yoki diskni aylantirasiz) va gapiraverasiz. Sizni iste'molchi tariqasida muammolaringiz paydo bo'lganda, ehtiyojningizni kim qondirayotganligi qiziqtiradi xolos. Agarda bir narsa ishlamay qolsa, faqat mas'ul kompaniya xatoni to'g'rilaydi. Ular muammo bo'lgan masalalar yuzasidan o'zaro kengashadi, lekin har bir tarmoq egasi o'zining xizmat doirasiga, ko'rsatadigan servisga o'zi javobgardir. Har bir tarmoqning o'zining shaxsiy ekspluatatsiya markazi (NOC) bor. Har bir shunday ishchi markaz boshqalar bilan bog'liq bo'lib, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni yecha biladi.

Sizning mintaqa Internet ning tarkibiy tarmog'i bilan kelishuvi bor va uning maqsadi-mintaqadagi iste'molchilarini tarmoqning ishidan mamnun etishdir. Agar biror bir narsa buzilsa, bunga javobgar, bu uchun kaltak yeydigan tashkilot, bu-NOC. Internet ko'rilgan baza bo'lmish TCP/IP tarmoqlar bayoni qurilmalari (arxitekturasini) yagona tarmoq uchun ixtisoslashgan. Tarmoq mutlaqo har xil, bir-biriga o'xshamas, o'zaro shlyuzalar bilan bog'langan kichik tarmoqlardan iborat bo'lishi mumkin.

Kichik tarmoq misolida turli lokal tarmoqlar (masalan, Token Ring, Ethernet, paketli radiotarmoq va xokazolar), turli milliy, mintaqal va ixtisoslashgan tarmoqlar (masalan, HEPnet), shuningdek, boshqa global tarmoqlarni (Bithet yoki Strint) keltirish mumkin.

Bu tarmoqlarga turli tipdagi mashinalar birlashtirilishi mumkin. Har bir kichik tarmoq o'zining maxsus talablari asosida ish olib boradi, o'zining aloqa tabiatiga emas, o'zining ichki muammolarini o'zi hal qiladi. Lekin har bir kichik tarmoq ma'lumot paketini qabul etib, shu konkret kichik tarmoqdagi belgilangan manzilga yetkazib berish imkonini borligi ko'zda tutiladi. Kichik tarmoq paket etkazishni kafolatlashi, ishonchli «skvoznoy» bayoni (ikki tashqi tarmoq orasida ma'lumot uzatilishida vositachi tariqasida tarmoq ishining bayoni) bo'lishi shart emas. Bundan past talabning tabiatini keyinroq tushunib olasiz.

Shunday qilib, bir kichik tarmoqqa birlashtirilgan ikki mashina to'g'ridan-to'g'ri paket almashish imkoniyatiga ega. Agarda boshqa kichik tarmoqdagi mashinaga axborot yuborish kerak bo'lsa, tarmoqlararo kelishuvlar kuchga kiradi. Buning uchun kichik tarmoqlar tarmoqlararo til - IP bayonini ishlatadi: ular axborotni maxsus shlyuza va kichik tarmoqlar zanjirlari orqali kerakli kichik tarmoqqa, to'g'ri iste'molchiga yetgunga qadar yuboradilar. Boshqa so'z bilan aytilganda, iste'molchini bu jarayon mutlaqo qiziqdirmaydi. Telefon tarmog'ini yagona katta tarmoq qilib tasavvur qilganidek, iste'molchi "Tarmoqlar tarmog'i" - Internet ni ushbu mutlaqo o'xshamas, ba'zida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan tarmoqlarning yig'imini yagona tarmoq-ifodasida tasavvur etadi.

3. Tarmoqlar haqida

MDH da yangi tijorat tarmoqlarini ommaviy ravishda barpo etish 1991-yildan boshlandi va doimiy davom etib kelmoqda.

Tarmoq xizmatiga kiradigan hudud jadallik bilan kengaymoqda, taqdim etiladigan servis darajasi va sifati o'smoqda.

Telekommunikatsiya xizmatining rivojlanishi xo'jalik va tijorat faoliyatini harakatlantirishning, iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Faol marketing va texnik siyosatni olib boruvchi ayrim tarmoqlarni sharxlab o'tamiz:

Relkom tarmog'i

1990 - yilda Atom energiyasi institutining va bir qancha ilmiy- tadqiqot institutlari (ITI), UNIX - kompyuterlari tizimini ishlab chiqaruvchi mutaxassislar va foydalanuvchilarni boshqaruvchi uncha katta bo'lmagan tarmoq tashkil etildi. Tez orada tarmoq 30 dan ortiq tashkilotlarni

birlashtirdi va Internetning - g'arbiy yevropadagi EUnet tarmog'iga ulandi hamda ro'yxatga olindi.

Hozirda Relkom umumiy maqsadlarga mo'ljallangan tarmoq sifatida rivojlanmoqda. U ilmiy va tijorat tashkilotlarini, davlat idoralari va muassasalarini birlashtiradi. Texnik jihatdan Relkomni o'z mintaqasida foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumotlar almashishini ta'minlovchi va zarur paytda mintaqaviy aloqa uzellari jamlamasi deb tasavvur etish mumkin. Relkom mintaqada ichida va EUnet, Internet, BitNet abonent tarmoqlarida elektron pochta xizmatini ta'minlaydi. Tarmoq Usenet telekonferensiyalaridan foydalanish imkonini beradi.

Relkom orqali RELIS tijorat axborot tizimi bilan ishlash oson va qulay. Bu tizim kundalik yangiliklarni, dayjestlar, tahliliy sharhlar va boshqa ko'pgina mavzularda axborotlarni taqdim eta oladi.

SprintNet tarmogi

SprintNet ma'lumotlarni uzatish tarmog'i bo'lib, o'nlab mamlakatlarning yuzlab shaharlariga kirish uzellariga ega.

SprintNet tarmog'iga keng sohadagi ma'lumotlarga ega mingta ma'lumot bazasi ulangan. SprintNet tarmog'i axborotlarni katta tezlikda almashish imkonini beradi.

Glasnet tarmogi

Oshkoralik kuchaygan paytda tashkil etilgan va uni o'z atamasiga aylantirgan (Гласность - oshkoralik) Glasnet tarmog'i 1990 - yildan boshlab Rossiya aholisiga va MDH dagi bir qancha davlatlar uchun jahon Internet komputer tarmog'iga kirish xizmatini ta'minlaydi. Xususiy mijozlar va tarmoq xizmatidan foydalanuvchi kichik biznes vakillariga e'tibor berish- Glasnetning ajralib turuvchi xususiyati sanaladi.

Sovam Teleport tarmogi

Sovam Teleport Xalqaro komputer axborot tarmog'i San Francisco Moscow Teleport (AQSH), Cable & Wireless (Buyuk Britaniya) kompaniyalari hamda Avtomatlashtirilgan tizimlar instituti (Rossiya) tomonidan 1990 - yilda tashkil etilgan. Tarmoq avvalo joriy vaqt rejimida teleks va telefaks xalqaro axborot mo'ljallangan. Xalqaro tarmoqqa chiqish ijaradagi yo'ldan G'arbiy yevropaga aloqa qilish kanallari orqali chiqiladi.

4. Bank tarmoqlari va banklararo hisob-kitoblar tizimi

Xo'jalikda to'lovlarning katta qismi naqd pulsiz hisob-kitob shaklida amalga oshiriladi. Naqd pulsiz aylanmaning katta ahamiyati iqtisod uchun ko'plab banklararo pul o'tkazishni o'zaro hisobga olish tizimi yoki kliring bilan almashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Kliringni qo'llashning nisbatan samarali sohalari quyidagicha: Markaziy Bank tizimida banklararo hisob-kitob, pul mablag'larini o'zaro o'tkazishni doimiy takrorlovchi iqtisodiy jihatdan bir-biriga bog'lik korxonalarga xizmat ko'rsatish, bir xildagi tezkor bilimlarni amalga oshirish. Kelajakda aksionerlik kliring va hisob-kitob tuzilmalarini tashkil etish va ularni jahon moliya tizimiga birlashtirish - bu Markaziy Bank siyosatining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

IP bayoni- bu tarmoq ishining qoidasi va tasvirlashi.

Bu bayon tarmoqdagi bog'lanishni o'rnatishni qo'llash qoidalarini o'z ichiga olish, IP paketlar bilan muomala qilish, ularni yana ishlab chiqarish, IP tarmoq paketlar oilasini tasvirlab berishdir. Bu tarmoq shunday o'ylanib loyiha qilinganki, ishlatayotgan kimsa tarmoq strukturasi haqida hech qanday axborot talab qilmasligi kerak. Tarmoq bo'yicha xabar yuborish uchun komputer ma'lumotlarni IP "konvertiga" solib, bu "konvert" ga tarmoqdagi aniq manzilni ko'rsatib, tarmoqqa jo'natish kerak. Bu natijalar g'alatiga o'xshashi mumkin, shuningdek, tarmoqning "ishonchsizligi" ham, lekin tajriba shuni ko'rsatib turibdiki, bu natijalarning ko'p qismi aql bilan qilingan va to'g'ri. Komputer tarmoqlari uchun tugallangan me'yorni yaratishga, me'yorlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (Organization for international standardization- iso) yillar ketkazishga qaramay foydalanuvchilar kutishni xohlamasdilar.

INTERNET faollari IP dastur ta'minotini turli turdagi komputerlarga o'rnatishni boshlashdi. Keyinchalik u har xil komputerlarni bog'lash uchun eng qulay usul bo'ldi. Bu sxema har xil ishlab chiqaruvchilardan komputerlar sotib olish siyosatini olib boruvchi va davlat universitetlariga ma'qul tushdi. Har kim o'ziga yoqqan komputerini olib, boshqa komputerlar bilan bog'lanishga ishonardi. ARPANET paydo bo'lganidan taxminan o'n yil o'tgach Lokal tarmoqlari (LAN) paydo bo'ldi, masalan, INTERNET va boshq. Shu bilan bir qatorda "ish stansiyalari" degan komputerlar paydo bo'ldi. Ko'pincha ish stansiyalarida UNIX operatsion tizimi o'rnatiladi. Bu operatsion tizim tarmoqda Internet (IP) bayoni bilan ishlash imkoniyatiga ega. Yangi misol va usullarning ishlanilishi paydo bo'lishi bilan yangi ehtiyojlar paydo bo'ldi: tashkilotlar ARPANETga o'zining lokal tarmoqlari bilan bog'lanishni xohlashar edi. Taxminan shu vaqtda boshqa tashkilotlar o'zining shaxsiy tarmoqlarini yaratishni boshladilar. Bular IP kommunikatsion bayoniga yaqin. Agar bu tarmoqlar bir-biri bilan aloqa qilganida hamma yutar edi, chunki bir tarmoqdagi foydalanuvchilar ikkinchi tarmoqdagi foydalanuvchilar bilan aloqa bog'lar edilar. Shu yangi tarmoqlarning asosiysi bo'lgan NSFNet Milliy Ilmiy Jamg'arma (National Science Foundation) - NSF bo'yicha ishlab chiqarilgan, bu jamg'arma bizning Ilmiy Vazirligimizning analogi 80 - yillar oxirida NSF super komputerning 5 ta markazini bunyod etdi va ularni har qanday milliy korxonalarga kerakli qilib yaratdi. Faqatgina 5 ta markaz yaratildi, chunki ular qimmatbaho edi, xatto boy Amerika uchun ham. Shuning uchun ham ularni jamoa bilan ishlatish kerak edi. Shu bilan birga muammo ham paydo bo'ldi: bu markazlarni birlashtirish va foydalanuvchilarga qulaylik yaratib berish talab qilinmoqda edi. Boshidan ARPANet kommunikatsiyasini ishlatish uchun urinib ko'rildi, lekin bu mehnatlar zoe ketdi, chunki u himoyalash tarmoq qog'ozbozlik va xizmatchilar bilan ta'minlash muammosiga uchradi.

Shunda NSF o'zining xususiy tarmog'ini qurishga qaror qildi, bu tarmoq IP ARPANet texnologiyasi asosida bo'ldi. Markazlarning maxsus aloqa tizimlari 56 KBps qobiliyati bilan birlashtirilgan edi. Biroq hamma universitetlarni izlanishdagi muassasalar markazlari bilan birlashtirishga urinishi kerak emas edi, chunki bu miqdordagi kabelni q o'yish nafaqat qiymat, balki amaliy mumkin emas edi. Shuning uchun mintaqalar asosida tarmoqlar yaratishga qaror qilindi. Har bir mamlakat burchagidan qiziqqan korxonalar o'z qo'shnilari bilan aloqa bog'lanishi lozim edi. Paydo bo'lgan zanjirlar o'z nuqtasida superkomputerga bog'landi, shu holda superkomputer markazlari bir -birlari bilan bog'landi. O'z qo'shnilariga suyanagan holda istagan komputer o'zga bilan bog'lanishi mumkin edi. Bu muvaffaqiyatli edi, lekin tarmoq o'sib, talablarga javob bera olmay qoldi. Hamkorlikda ishlatilgan superkomputerlar tarmoqqa ulangan foydalanuvchilarga boshqa ko'plab superkomputerga tegishsiz narsalar bilan ishlash uchun qulaylik yaratdi. Kutilmaganda universitet, maktab va boshqa korxonalar qo'l ostida juda ko'p ma'lumotlar borligini angladi. Tarmoqqa kelayotgan ma'lumotlar juda tezlik bilan o'sib bordi va oxiri tarmoq boshqarayotgan komputerlar va ularni bog'layotgan aloqa simlari to'lib toshdi. 1997 - yili boshqarish va tarmoq rivojlanishiga shartnoma MERIT NETWORK Inc kompaniyasiga topshirildi, bu kompaniya IBM va MCI bilan birgalikda Michigan tarmog'i bilan ulandi. Jismoniy eski tarmoq (taxminan 20 marta) tezroq ishlaydigan aloqa tizimiga almashtirildi. Boshqaruv mashinalar yanada tezroq tarmoqqa almashtirildi. Tarmoqni takomillashtirish to'xtamay ketyapti. Ammo bu o'zgarishlarni ko'pi foydalanuvchilarga bilintirmasdan kiritilyapti. Komputerni yoqib, «Internet yangilanishi sababli yarim yil ishlamaydi» degan e'lon ko'rmaysiz. Balki eng muhimi, tarmoq to'lishi va uni takomillashishi komil va amaliy texnologiya yaratdi. Muammolar yechildi va fikr rivojlanishi ishda sinab ko'rildi. Bir narsani aytib o'tishimiz lozimki, barcha xohlovchilar NSF harakatlari tufayli tarmoqdan foydalanishi mumkin. Avval INTERNET bilan faqat axborot sohasida izlanuvchilar, davlat xizmatchilari foydalanishi mumkin edi. NSF ITERNET bilan ommaviy foydalanishga yordam berdi, u ilmgohlarning tarmoqqa ulanishiga mablag' ajratdi. Shunday qilib, har bir to'rt yillik kollej talabasi INTERNET xizmatidan foydalanishi mumkin bo'ldi.

5. Potensial iste'molchilar, INTERNET ga yo'l

Internet kimga va qay tarzda foydali bo'lishi mumkin?

Uning rivojlanishiga nimalar ta'sir etadi? Internet ning foydaliligi hisoblash texnikasining rivojlanishiga nisbatan 10 yil kechikish bilan oshib kelgan. 80-yillar ohirida shaxsiy komputerlar paydo bo'lishi informatikaning bilimdonlar saltanatidan keng ommaga olib chiqdi. O'zining rivoji va tarqalishida Internet huddi shunday jarayonni olib boradi. Hisoblash texnikasiga o'xshab, Internet ham ekspertlar o'yinchog'idan to kundalik ehtiyoj asbobigacha yo'lni bosib o'tdi. Ularning shu yo'lni bosib o'tish jarayonlari ham o'xshashdir.

Tarmoqdan foydalanish asta-sekin soddalashdi, buning sababi, bir tomondan, uskunalar yaxshilanishi, ikkinchi tomondan, tarmoqning tezkor va ishochli bo'lib qolishidir. Avvalida ishonmaganlar ishonch hosil qilib, Internet dan foydalana boshladilar. Bu yangi iste'molchilar, yangi resurs va yangi uskunalar katta ehtiyojni vujudga keltirdilar. Eski usullar rivoj topdi, yangi resurslarga o'tish uchun yangi usullar yaratildi, bu esa tarmoqdan foydalanishni osonlashtirdi.

Huddi shuningdek, yangi iste'molchilar ham Internet foydasini tushundilar. Jarayon qaytarildi. Bu aylanma harakat shu kungacha rivojlanib kelmoqda.

Umuman, barcha Internet foydalanuvchilari bir narsani istaydilar: komputerlar orqali muloqot qilish. Internet resurslari haqidagi fikrlashni unutish oson, ammo ular juda muhim huddi yaxshi komputerdek. Internet- tinchliksevar va do'stliksevar muxit. Bu yerda huddi o'zingizdek insonlarni uchratish mumkin. Siz shubhasiz doimiy iste'molchisiz, agarda masalan siz:

- Genom kartasiga muhtoj biolog bo'lsangiz;
- ruhiy tushunish va o'rtoqlik istayotgan bo'lsangiz;
- islomiy davlatdagi buddist bo'lsangiz;
- efirdagi pop-musiqadan bedor bo'lgan, klassika va rok muxlisi bo'lsangiz;
- nozik munosabatlar haqida qonun bilan sirlashmoqchi yoki psixoterapevt bo'lsangiz.

Internet shu barcha insonlarga o'z hamfikrlarini topishda ajoyib imkoniyat taqdim etadi. Xohlagan mavzuga elektron muloqot klub topish mumkin, ya'ni juda ham oson (hozir bular bir yarim mingga yaqin), yoki hali hech kim bilmaydigan yangi klub ixtiro qilish mumkin. Internet yana bu insonlarga yangi komputer resurslariga yo'l ochib beradi. "Bilim" jamiyati lektori NASA komputeri bilan bog'lanishi mumkin, u esa o'tmish, kelajak va hozirgi paytdagi kosmik bilimlari va AQSH dasturlari haqida ma'lumot beradi. Ruhoniy esa, Qur'on, Tavrot yoki Injildan kerakli parchalar topishi mumkin. Yurist "Iran-kontras" ishida AQSH oliy sudining doklad nusxalarini o'z vaqtida topishi mumkin. Sakkizinchi sinf o'quvchisi V. Soyning lirikasi haqida tengdoshlari bilan muhokama qilishi mumkin. Bu faqat boshlanishi.

Shubhasiz, barcha tushunib yetadiki, «Axborot Erasi» kirib kelmoqda, unga muhtojlik oshib boradi, iste'molda iste'molchilar soni ham, bundan qochib bo'lmaydi. Ishonchli axborotlarsiz zamon bilan hamnafas bo'lish, texnika va bilim darajasini dunyoviy qilib rivojlantirish mumkin emas.

Biz barchamiz, har birimiz global axborot tarmoqlaridan foydalanuvchilarmiz.

Siz o'zingiz bunga ishonch hosil qilasiz.

5a. Internet ga yo'l

Odatda, (service provider) xizmat ko'rsatuvchilari orqali Internetga yo'l olinadi. Bu xizmat ko'rsatuvchilar har-xil xizmat turlarini sotishadi, ularning xar-biri o'z yutuq va kamchiliklariga ega. Agar siz original avtomobil sotib olmoqchi bo'lsangiz, u qanday bo'lishi kerak. Siz unga qancha to'lashingiz va mintaqalar ichidan o'zingizga qulay deb topganingizni tanlashingiz mumkin.

Lekin Internet xizmatchilari ro'yxati bilan tanishishdan, o'qish, tanlash va ular bilan bog'lanishdan oldin, siz o'zingiz ham bilmagan holda Internet ga yo'l topmadingizmi, bilib oling. Bunday hol-Rossiyada kam uchraydi. AQSH da esa ko'p.

Agarda sizning tashkilotingiz Internet ga bog'lanmagan bo'lsa, siz yuqoridagi boshliqlaringizga talabnoma qo'yishingiz mumkin (bu hodisa kam uchrasa-da) lekin Internetga to'g'ridan-to'g'ri bog'lovchilarsiz, ortiqcha harajatsiz yo'l topish mumkin. Birinchi o'rinda Freenet-deb nomlangan bepul xizmat ko'rsatish tarmog'ini markaziy kutubxonalardan izlang. Bu tizim asosan Internetga telefon orqali yo'l bog'laydi. Ikkinchi usulda esa Garb mamlakatlarida yashaydigan yoshlarga foydali yoki Rossiya bilan hamkorlikdagi g'arb universiteti yoki kolledjiga kiring. Bundan so'ng siz Internet ga bog'langan tegishli mutaxassislik kurslariga yozilishingiz mumkin.

Mashqlar


1-7- mashqlarni ketma-ket bajaring, zarur bo'lsa (**пункт** menyusida **справка**), ma'lumotnomadan foydalaning.

1-mashq. Axborotni so'z kalitlari orqali qidirish

1. Nazariy qism.
2. Internetdan kerakli ma'lumotni olish uchun murojaat qilinadi.
3. WEB-sahifani ochish uchun, manzilni bilish kerak yoki boshqa sahifadan unga murojaat qilinadi. Agar u yoki bu ham bo'lmasa unda qidiruv sistemaga murojat qilinadi, maxsus WEB-tarmoq deb nomlanuvchi qidiruv sistemalari qidiruv metodi bo'yicha taqsimlanadi.
4. Qidiruv kataloglari mavzu orqali qidirishga mo'ljallangan.
5. Foydalanuvchi bo'limlarga ixtiyoriy kirish uchun qidiruv kataloglarida kirishni oliy darajada bajaradi. Qidiruv indeksi so'z kaliti orqali qidiriladi. Buning natijasida WEB sahifasida bir nechta terminlar paydo bo'ladi.
6. Birinchi marta qidiruvda aniq maruza topishda qidiruv kataloglaridan foydalaniladi. Mutaxassislar uchun qidiruv indekslaridan foydalanish lozim.
7. Internet Explorer dasturida mahsus qidiruv tizimi mavjud. Buning uchun suz kaliti go Find yoki bir necha so'z kalitlarini kiritadi. Qidiruvning ikkinchi imkoniyati shundan iboratki, **поиск** bo'limiga kirib, **поиск** tugmachasi bosilib instrument panelidan **обычные кнопки** qo'shimcha panel ochiladi. Buning natijasida bir nechta ma'lumotlar olinadi: WEB-sahifa, insonning aniq manzili, boshlanish WEB-tarmog'i topiladi. Ma'lumotni qidirishda kalit so'zlaridan foydalanib quyidagi amallarni bajaring.

8. **Internet Explorerni** ishga tushiring. Buning uchun **Пуск → Программы → Internet Explorer** ketma-ketligini bajaring yoki ishchi stolda belgisini bosing.

9. **Адрес** maydonida **http://www.rambler.ru** ni tering.



10. Yuklatilgan sahifani diqqat bilan ko`rib chiqing, ushbu sahifadagi kalit so`zlari uchun mo`ljallangan maydonchani va uning yonida joylashgan **Найти** tugmachasini toping. Faraz qilaylik, neftchilik sohasiga taalluqli Web-sahifalarni topmoqchimiz.

11. U holda kalit so`zlari uchun mo`ljallangan **Я ищу** maydonchasida *Нефтяное дело* so`zlarini tering.

12. **Найти** tugmasini bosing .

13. Qidiruv natijasida topilgan 1- va 2-betdagi Web-sahifalar ro`yxatini ko`rib chiqing.

14. 2-betdagi gipermurojaatlardan birini tanlang va uni bosing.

15. Yuklangan hujjatni ko`rib chiqing va uni yoping. Buning uchun oynaning o`ng tepa burchagida joylashgan "X" belgisini bosing.

16. **Инструмент**lar panelida **Назад** tugmasini bosing

17. Ajratilgan birinchi bettagi gipermurojaatdan bir nechtasini 7-9 bandlar bo`yicha ko`rib chiqing.

18. **Инструмент**lar panelidagi Poisk tugmachasini bosing.

19. **Поиск** maydonida *Нефтяное дело* kalit so`zlarini tering.

20. **Поиск** tugmachasini bosing.

21. Qidiruv natijasini taqqoslang.

22. **Адрес** panelida **Find** so`zi va *Нефтяное дело* kalit so`zlarni tering.

23. Qidiruv natijasini taqqoslang.

24. **Назад** tugmachasini bosing.

25. **Internet Explorer** dan chiqing.

Misol uchun:

Kaliningrad davlat universiteti konteksti bo`yicha **yandex.ru** da qidiruvni amalga oshiring. Sahifa ochilishidan so`ng bu qidiruvning natijasi bo`yicha **Результат поиска** degan bo`limlardan sahifalar va serverlarni yozib oling. Yana hisobotga «**Поискать тоже самое**» ning yo`lidan barcha qidiruv serverlari nomlarini yozib oling. So`ng «**Музей Канта**» konteksti bo`yicha qidiruvni amalga oshiring va «**Искать в найденном**» qo`yishni esingizdan chiqarmang, sahifa ochilgandan keyin ikkinchi qidiruv natijalari bilan «**Результат поиска**» bo`limidan sahifalarni va serverlarning nomini yozib oling.

2-mashq. Internetda faylni yuklash

Nazariy qism:

WEB sahifasidagi **гиперссылка**lar hujjatlarning toifasini ko`rsatadi.

Internet Explorer faylning yuklash **мастер**i kiritadi. Ishning birinchi bosqichida fayl ochib uni saqlab qo`yish kerak. Faylni «ochish» deganda katalogga joylab yuklash faraz qilinadi. Bu holat virusdan saqlashni himoya qiladi. Faylni yuklashda quyidagi amallarni bajaring:

1. Internet Explorer dasturini yuklang.

2. Manzil panelida ftp:\\Microsoft.com ga kiring.

3. Internet Explorer dasturida FTP arxivining kattaligini ochib, sinchiklab qarab chiqing, manzil qatorida belgiga ahamiyat bering.

4. Ikki marotaba bosilgandan keyin belgilar papkasida \\product\\windows\\ windows95\\cd Rom Fxtrans\\Funstuff\\. Papkasini oching.

5. Cloude.exe belgiga o`ng knopkani'sichqonchani bosib kontekst menyusida «**Копировать папку**» tanlab oling

6. Yuklangan fayllar saqlanadigan papkani tanlab faylga nom bering.

7. Fayl yuklashdagi dialog darchasida bayroqcha o`rnating.

8. Dialog darchani yuklashda ketma-ketlikni qarab turing.

9. Faylni yuklash yakunlanganda dialog darchani yoping.

10. **Проводник** dasturi orqali yuklangan fayldagi papkani

oching.


Yuklangan faylni qo'llashni ko'ring.

3- mashq. Избранное papkasidan foydalanish

Ishdan maqsad: Избранное papkasida topilgan kerakli Web-sahifalarni saqlab qo'yishni o'rganish. Избранное papkasi joylashtirilgan papkalar strukturasi o'zgartirish, hamda tanlangan Web-sahifalarni yuklashning turli usullarini o'rganish.

Ishning bajarilishi

1. Internet Explorer ni ishga tushiring.
2. Manzil maydonchasida **http:\www\computerworld.ru** yoki ixtiyoriy manzilni kiriting va **Enter** tugmachasini (yoki sichqonchaning chap tugmasini) bosning.
3. Yuklatilgan sahifani ko'rib chiqing.
4. Sichkoncha ko'rsatkichini oynaning ishchi qismiga olib kelib sichqonchaning o'ng tugmachasini bosning va kontekst menyusida **Добавить в избранное** buyrug'ini toping va uni ishga tushiring.
5. **Имя** darchasiga *Экспериментальная страница* so'zini kiriting.
6. OK tugmachasini bosning.
7. **Инструментал**lar panelida **Домой** tugmachasini bosning.
8. **Инструментал**lar panelida **Избранное** tugmachasini bosning, yon tomonda **Избранное** paneli paydo bo'ladi. Bu panelda *Экспериментальная страница* so'zlar majmuini toping.
9. **Избранное** papkasida yuklatilgan sahifangiz mavjud ekanligiga ishonch hosil qiling.
10. **Избранное** menyusida **Упорядочить избранное** buyrug'ini toping uning ustida sichqoncha tugmasini bosning. **Создать папка** tugmachasini bosning: ekranda yangi **Новая папка** paydo bo'ladi.
11. Yangi papkaga **Материалы** deb nom bering.
12. *Экспериментальная страница* punktini tanlang. **Переместить** tugmachasini bosning. **Обзор папок** deb nomlangan muloqot ochiladi, so'ng **Материалы** papkasini tanlab **OK** tugmachasini bosning.
13. **Упорядочить избранное** muloqot darchasini va **Internet Explorer** dasturini yoping, lekin Internetdan aloqani uzming.
14. Windows oynasining pastki chap qismida **Пуск → Избранное → Материалы → Экспериментальная страница** yoki ishchi stolda **Internet Explorer Пуск → Избранное → Материалы → Экспериментальная страница** tugmachalarini ketma-ket bosning.



15. Qaysi sahifa yuklanayotganini kuzatib turing.

16. Избранное menyusiga kiriting Упорядочить избранное buyrug`ini ishga tushiring. Упорядочить избранное muloqot darchasida Материалы papkasini ajrating va Удалить tugmachasini bosing.

4-mashq. Elektron pochta ishlash asoslari

Nazariy qism

Internet elektron pochta xizmatiga ega. Elektron pochta nima? Elektron pochta maxsus programma bo`lib, uning yordamida Siz dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga turli xat, hujjat va umuman ixtiyoriy faylni jo`natishingiz va olishingiz mumkin. Eng asosiysi ma'lumot bir necha daqiqada yetib boradi. Lekin undan foydalanish uchun Siz maxsus pochta tarmog`i yoki Internet tarmog`iga boglangan bo`lishingiz va elektron manzilga ega bo`lishingiz kerak. Elektron manzilni provayder ochadi. Internetda bepul elektron pochta xizmatlari mavjud. Ulardan foydalanib, o`zingiz elektron manzil ochishingiz mumkin.

Bu-www.hotmail.com, bu sahifalarga kirib anketa savollariga javob berib, manzil ochishingiz mumkin.

Elektron manzil odatda E-mail deb ko`rsatiladi. Elektron pochta yuborganda siz xuddi xatni yuborayotganday, uning kimga, qayerga va o`zingizning elektron manzilingizni yozib yuborasiz. Siz xatni bir necha manzillarga yuborishingiz ham mumkin. Elektron xatni yuborganingizdan so`ng u elektron pochta qutisiga tushadi, xat ko`rsatilgan manzil pochta qutisiga yetkaziladi va undan xat egasi xatni oladi. Ya'ni har bir foydalanuvchi o`zining pochta qutisiga ega. Umumiy pochta qutisidan xat shaxsiy qutichalarga muntazam ravishda jo`natiladi.

E-mail manzil formati. Elektron manzil quyidagi formatga ega:

<Elektron manzil muallifi ismi><tashkilot, provayder nomi><davlat nomi>. Demak, malika- manzil egasi ismi, mrc-tashkilot nomi, freenet-Internet-provayder nomi, uz-davlat nomi.

Xatni yuborish uchun manzilni, mavzuni va o'z manzilingizni ko'rsatishingiz zarur. Elektron pochta orqali matn, grafik, audio, video, rasmlu hujjat va fayllarni yuborish mumkin.

Elektron pochta bilan ishlash. Outlook Express dasturi bilan tanishamiz. Bu dastur bilan ishlash juda oson va qulay. Dasturni ishga tushirish uchun dastur belgisida sichqoncha tugmachasini 2 marta chertasiz va ekranda quyidagi darcha hosil bo'ladi.

Darchaning yuqori qismida menyu komandalari keltiriladi. Keyingi satrda asboblari dastgohi tugmachalari joylashgan. Elektron pochta bilan ishlashda asboblari dastgohi tugmachalaridan foydalanish juda qulay. Shuning uchun quyidagi asosiy tugmachalarning tavsifini keltiramiz.


- | | | |
|----------------------------|---|--------------------------------------|
| Создать сообщение | - | Xatni yozib yuboradi. |
| Ответить автору | - | Xat muallifiga javob yozib yuboradi. |
| Переслать сообщение | - | Xatni boshqa manzilga yuboradi. |
| Доставить почту | - | Xatni ko'rsatilgan manzilga eltadi. |
| Удалить | - | Xatni o'chiradi. |

Darchaning pastki qismida bir nechta darcha tashkil topadi. Chapki darchada quyidagi jildlar ro'yxati mavjud. Bu jildlar tavsifi quyidagicha:

- | | | |
|---------------------|---|--|
| Входящие | - | Bu jildda Sizga kelgan xatlar joylanadi. |
| Исходящие | - | Bu jildda Siz yozgan xatlar joylashadi. |
| Отправленные | - | Bu jildda jo'natilgan xatlar ro'yxati keltiriladi. |
| Удаленные | - | O'chirilgan fayllar saqlanadigan savat. |

Jildga mos xatlar ro'yxati o'ngdagi darchada beriladi. Pastdagi darchada esa, joriy xat mazmuni ko'rsatiladi.

Xat yozish va jo'natish tartibi



Hamkasb yoki do'stingizga xat yozish uchun **Создать сообщение** tugmachasida sichqonchani bosing.

Кому maydonida do'stingiz elektron manzili yoziladi.

Копия maydonida xat nusxalari yuborilgan mualliflar manzillari keltiriladi.

Тема maydonida xatning mavzusini ko'rsating.

Masalan, "taklif"

Pastki darchada xat yoziladi.

Masalan,

“ Hurmatli Saidaxon, Sizni 5 - yanvar soat 15.00 da o'tkaziladigan korxonamizda ishlab chiqarilayotgan yangi mahsulot taqdimotnomasiga taklif etamiz. Manzil: Oromgoh ko'chasi, 5. Ehtirom ila korxona direktori”.

Xatni to'g'ri yozganingizni quyidagi rasm yordamida tekshirib ko'ring.

Endi xatni egasiga yuborish uchun quyidagilarni bajaring.

1. **Отправить** tugmachasini sichqoncha yordamida cherting.
2. Xatning **Исходящие** jildiga tushganligini tekshiring.
3. **Доставить почту** tugmasini bosing.
4. Xatning **Исходящие** jildidan **Отправленные** jildiga tushganligini tekshiring.

Хатlarni o'qish

Sizga kelgan xatlarni ko'rish va o'qish uchun quyidagilarni bajaring.

1. **Доставить почту** tugmasini bosing.
2. **Входящие** jildini oching.
3. O'qilmagan xatlar ro'yxatda tim qora rangda ko'rsatiladi.
4. Xatni tanlab, sichqoncha tugmasini bossangiz, xat mazmuni darchada hosil bo'ladi.
5. Agar muallifga javob yubormoqchi bo'lsangiz, **Ответить автору** tugmachasini bosish kerak.
6. Ekranda muallif manzili ko'rsatilgan darcha hosil bo'ladi.
7. Javobni yozing va xatni odatdagidek yuboring.

Нужjatlarni jo'natish tartibi

Biror hujjatni yoki grafik, audio va videoli faylni xatga ilova qilishingiz mumkin. Odatda hisobotlar, turli hujjatlar, rasm yoki shunga o'xshash ma'lumotlar ilova yordamida jo'natiladi. Hujjatlarni tayyorlangan programma formatida jo'natgan ma'qul.

Masalan, Word yoki Excel da ishlangan, yoki rasm, multimedia, audio yoki videoni ham o'z formatida yuborish zarur. Lekin bu fayllarning hajmi kattaligini hisobga olib ularni jo'natishdan avval arxivator programmalar yordamida kichraytirish zarur. Buning uchun quyidagilarni bajaring.

1. Xatda ilovaga izoh keltirishingiz mumkin.
2. So'ng **Упаковать** tugmachasini bosing.
3. Ekrandagi darchadan hujjat joylashgan fayl nomini tanglang va **«Вложить»** tugmachasini bosing.
4. Xatni odatdagidek jo'nating.
5. **Отправленные** jildini ochsangiz, yuborgan xatingiz yonida ilova belgisini ko'rasiz.

Поvali xatni o'qish

Поvali xatni ochish tartibi quyidagicha:

1. Xatni odatdagidek oching.
2. Xatning o'ng yuqori qismida ilova belgisini sichkoncha bilan bosing.
3. Natijada ilova qilingan fayl ekranda hosil bo'ladi.

Elektron pochtdan foydalanishga oid maslahatlar

1. Xatni printerda chop etish uchun **«Файл»** menyusida **«Печать»** komandasini kiriting.
2. Xatni alohida faylga yozib qo'yish uchun **«Файл»** menyusining **«Сохранить как»** yoki **«Сохранить»** komandalaridan foydalaning.
3. Keraksiz xatlarni **«Del»** tugmachasi yordamida o'chirish zarur.
4. Xatlarni tartiblash mumkin, buning uchun **«Сообщение в» «Переместить в»** komandalaridan foydalanishingiz mumkin. Jild **Файл, Папка, Создать** menyulari yordamida ochiladi.
5. Xatni topish uchun **Правка** menyusining **«Найти сообщение»** komandasidan foydalanishingiz mumkin.

6. Savatdagi xatlarni ba'zan o'chirishni unutmang.

Elektron pochta dasturi bilan tugmachalar yordamida ishlash

Tugmachalar majmui	Bajariladigan amal tavsifi
CTRL+N	Yangi xat yozish mumkin.
CTRL+R	Xatga javob yuboradi
ALT+S	Xatni jo'natadi
CTRL+M	Xatni muallifga eltadi
CTRL+D	Xatni o'chiradi
CTRL+P	Xat nusxasini printerda chiqaradi
Shift+BackSpace	Xatni boshqa manzilga eltadi

(Bunda **CTRL+N** – **CTRL** tugmachasini bosgan holda **N** tugmachasini bosish tushuniladi.)

Misol tariqasida o'zingizga xat yozib ko'ring.

1. **Outbook Express** ni ishga tushiring.
2. **Сообщение, Параметры, Сервер** menyulari yordamida o'zingizning elektron manzilingizni aniqlang.
3. **Создать сообщение** tugmachasini bosing.
4. **Кому** maydonida komputeringiz e-mail manzilini kiriting.
5. **Тема** maydonida «Тест» deb yozing.
6. Xat maydonida ixtiyoriy ma'lumotni yozing.
7. Xatni jo'nating.
8. Jo'natgan xatingizni topib o'qib ko'ring.

Elektron Web pochtdan foydalanish

Birinchi navbatda loginingiz bilan Web -serverga kiring. Agar siz kirib bo'lgan bo'lsangiz , qayt a kirish kerak emas.

Masalan: «**Народ yandex.ru**»da qayd qilingandan keyin **моя почта ссылка** si bo'yicha elektron pochta bilan ishlash mumkin.

Mos sahifadan pochtingizni qayd qilgan joyga o'ting. Bu sahifada pochtingizni boshqarayotgan barcha **ссылка**lar va sizga qolgan xatlar ro'yxati joylashgan bo'ladi.

Masalan«**народ yandex.ru**» da lineyka menyusidagi pochta menyusini bosing. Yandex.ru pochta sahifasida paydo bo'lasiz.

Xat jo'natish uchun mos ravishdagi tugmachalarni bosing. Paydo bo'lgan oynada jo'natilishi kerak bo'lgan manzilingizni yozing, xat mavzusiga va xat matniga mos keluvchi matnlar oynasida xat matni uchun chetda aylanma chiziqchali oyna ajratiladi. Undan so'ng «**Отправить**» tugmachasini bosing. Agar xat haqiqadan xam to'g'ri ravishda jo'natilgan bo'lsa kerakli xabar paydo bo'ladi.

Masalan«**yandex.ru почта**» sahifasida «**Написать письмо**» tugmachasini bosing. Keyin «**Кому**» deb nomlangan maydonga kerakli pochta manzilini kiriting .**Тема** deb nomlangan maydonga-xat matnini tering. So'ng sahifa pastki qismidagi«**Отправить**» tugmachasini bosing. Xat jo'natilgandan so'ng oynada «**Сообщение отправлено**» degan matn paydo bo'ladi.

Pochta bilan ishlashda kiritilgan xatlar ro'yxati ekranda aks etilgan bo'lishi kerak. Ro'yxatni yangilash uchun (sahifa ekranda turgan vaqtda yangi xat kelishi mumkin edi) kiritilgan xatlar **ссылка**sinini bosing. Xatning matnini kiritish uchun uni ro'yxatda belgilab bosing. O'qilayotgan xatni ekranda yo'qotish uchun unga mos tugmachani bosing. Kiritilgan xatlar ro'yxatiga qayting. Ro'yxatga kiritilgan xatlarga qaytish uchun xatni o'chirmay turib kiritilgan xatlar **ссылка**sinini toping.

Masalan: Yandex pochta sahifasidan kiritilgan xatlar ro'yxati bor. Bu ro'yxatni yangilash uchun chap tomondagi **входящие ссылки** sini belgilab bosing. Xatni ko'rish uchun uni belgilab bosing. Xatning matni paydo bo'ladi. Bu yerda xatni «**Удалить письмо** » knopkasini bosib

o'chirish mumkin. Qaytarish uchun ko'rildan xatni yo'qoting yoki huddi o'sha **входящие** **ссылка**sinini belgilab bosing.

Mashq. Manzilatga javob berish uchun yangi xatni **ссылка**sinini bosish shart emas, qulayrog'i xatni ko'rish sahifasiga kirib (qanday papkada joylanishidan qat'iy nazar) manzilatning javob **ссылка**sinini bosing. Shunda yangi xat sahifasi ochiladi.

Tavsiyanoma: Manzilli kitobni yuritmang, hech bo'lmaganda bitta manzilli xatni saqlab qoling.(misol uchun unga javob berish uchun).

Misol uchun: Yandex pochta xatini qaysi papkada ko'rishingizdan qat'i nazar **«Ответить»** ya'ni javob berish tugmachasini bosamiz. Keyin xat mavzusini tanlab xat matnini jo'nating. Agar sizda oldindan elektron manzili mavjud bo'lsa, qayerda ismi sharifingiz manzil sifatida foydalanilganda, siz undan xat jo'natishingiz mumkin.

Sizning manzilingizdan elektron pochta orqali manzilni jo'nating. Xat matnida albatta ism va familiyangiz bo'lishi shart va kursingiz, guruhingiz ko'rsatilgan bo'lishi ham kerak. Agarda xatda Web pochta serveri qandaydir sizga kerakmas reklamali matn yaratib qo'ysa, darhol uni yo'qoting, unga mos keluvchi tugmachani belgilab bosing. Bir necha kundan keyin olingan xatni ko'rib o'qib chiqishingiz ham mumkin. Agarda jo'natilgan xatingizni mavzusining o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, xat jo'natilib bo'lgandan keyin buning ilojisi yo'q. Xatni yana bir marotaba o'zingiz xohlagandek yangitdan yozishingiz kerak.


Olingan xat shu bob bo'yicha hisobot hisoblanadi. Yaxshisi, o'sha zahotiyoq ayrim boblarni bajarish kerak emas. Ularni asta - sekin internetdan chiqib yoki internetga yangitan kirgan holda bajaring. Sizga amaliyot kerak. Elektron pochtaga kirishingiz birinchi tushunchangiz bo'yicha yuqori yozilgan. Keyinchalik tahsil olish uchun kerakli kitoblarni o'qing, siz qayd qilingan saytlardagi yangi ma'lumotlarni o'qing. Bir-biringizga internet orqali xat jo'natish orqali,muloqat o'tkazing.

5-mashq. Elektron pochta manzilining qayd etilishi


Nazariy qism

Qayd qilinishdan keyin sizning login manzilingiz o'zingizning manzilingiz bilan bir xil bo'lgani ma'qul. Buni aniqlash uchun quyidagilarni ko'rib chiqish kerak: ma'lumotlarni ko'rish va qayd etish muolajasidan qanday o'tishni ko'rish. Bundan keyin sizga **«Имя собачка» «Имя сервер»** deb nomlangan pochta manzili taqdim etiladi.

Misol uchun: Server **«Yandex.ru»**da sizga elektron pochta manzilini kiritishda faqatgina loginning qayd qilinishidan keyin imkoniyat yaratiladi. Bu yerda berilgan manzilga xo'p deb qo'ya qoling va elektron pochta manzilini qayd qilish muolajasi yakunlanadi. Bu bepul serverlardagi qayd etish bo'lib, o'zining afzalliklariga va pulli qayd etishga nisbatan qator kamchiliklarga ham ega.



Masalan: Sizga internet xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderingizda: «Rambler.ru» deb nomlangan login bilan qayd qilishning sizning familiyangiz bo'yicha faqat sizning loginingiz bilan to'g'ri keladigan, elektron pochta manzilini qo'ying. Shunda oynangizda elektron



pochtangizni manzili paydo bo'ladi.

6-mashq. WEB sahifa ochish

Nazariy qism

Internet uchun sahifa yaratamiz, ya'ni Web-sahifasini. Word ga o'xshatib sahifalarni o'rganamiz va redaktor yordamida varaq yaratamiz.

Word da sodda Web-sahifalarning yaratilishi

Wordga kiring (agar u yuritilgan bo'lsa unga o'ting).

Endi 2 ta variant mavjud.

Birinchi variant - bu shunchaki hech qanday formasiz Word ga matnni kiriting. Hujjatni xotirada saqlab qolish uchun, faylga kirib **«Сохранить как»** tugmachasini bosing. Keyin oynada paydo bo'lgan xotirada qolgan hujjatning:

a) **«имя файла»** deb nomlangan matnlar maydonida fayllar nomini tering;

b) **«Папка»** deb nomlangan matnlar maydonida kerakli papkaga o'ting;

d) HTML hujjatga fayllar turi maydonidagi ahamiyatini o'zgartiring.

e) Faqat endi **«Сохранить»** tugmasini bosing.

Undan keyin oynada Microcoft HTML o'zgarishida kirilchga kodirovkasini tanlang, so'ng **OK** tugmasini bosing. Web-sahifalari xotirada saqlanib qoladi.

Ikkinchi variantda fayl ichidagi **создать** tugmachasini bosing. Hujjatning yaratilishi oynasida Web-sahifalari belgisini tanlang. Yangi Web-sahifalari tugmachasini bosing.

Ikkala variantda ham sizning qarshingizda Web-sahifalari huddi internetda nomoyon bo'lgandek ko'rinadi, lekin asboblardastgohi boshqa bo'ladi.

Endi Web-sahifalarini yozish mumkin. Birinchi variantga nisbatan ikkinchi variantda Web-sahifalarining yaratilishida disketaga Web sahifalarining saqlanishida to'liq o'tish kerak.

Web-sahifalarida qayd qilish

1. Web serverga kiring, har xil asboblard bilan saytlarda registratsiya qilinadi, faqatgina Web-sahifalarining ochilishi yoki elektron pochtaning ochilishida emas.

2. Loginning kiritilishi uchun huddi shunday serverlardan matnlar maydoni joylashgan bo'ladi, ya'ni foydalanuvchining ismi va parol yozilgan bo'lishi kerak. Bu maydonlarda registratsiya jarayoni amalga oshirilayotganda hech narsa kiritish mumkin emas. Bu blokning maydoni foydalanuvchining registratsiya vaqtida to'ldiriladi. Huddi shu maydonlar yonida registratsiya blogi joylashgan bo'ladi yoki registratsiya uchun javoblar **ссылка**lardan foydalanish mumkin.

Masalan: **Narod yandex.ru** portalida **«Постройте свой сайт за 60 секунд»** deb nomlangan registratsiya bloki mavjud, bunda loginning kiritilishi uchun faqatgina bitta matnlar maydoni siz registratsiya qilishingiz uchun mavjud bo'ladi.

Albatta silkadagi **«За чем это надо», «что здесь дают», «пользовательское соглашение»** deb nomlangan axborotlarni o'qib chiqing.

3. Xohlagan loginingizdan kichkina lotin harflaringizni tering, yoki to'g'ri keluvchi sonlar bilan qayd etish maydonida mos keluvchi raqamlar bilan raqamlarni terib, tugmachani bosing.

Misol uchun **«Народ yandex.ru»** nomli matnlar maydoni loginning terilishida matnlar maydonidan avval turadi. **Народ.ru** sizning yangi saytingiz, shuning uchun yangi loginingiz shu sayt bo'ladi. Loginning terilishidan so'ng **«Занята»** nomli tugmani bosing.

1. Xohlagan loginingizning kiritilishida foydalanuvchi qayd etish sahifasiga o'tib qoladi. Bu sahifada alohida bir forma joylashgan bo'ladi va uning to'ldirilishi bo'yicha instruksiya xam, yulduzchali maydonlar alohida to'ldirilishi kerak. Terilgan loginni o'zgartirishingiz mumkin, lekin login baribir bir zumda lotincha harf va raqamlar bilan yozilib qoladi. Parol ham lotincha harf va raqamlar bilan yozilib qoladi, lekin yozma va bosma harflar bir-biridan farq qiladi. E'tibor bering: parolni ikki marotaba sirli tarzda yozish kerak. Keyingi maslahatlarni ishlatib:

a) sizning parolingiz tarzida lotincha harflarni ishlatish qulay;

b) xatlar kodirofkasini formatda qoldiring. Xatlar formatini matnli tarzda yozish qulay, chunki u HTML emas.

Misol uchun: **«Народ yandex.ru»** serverida **«Yandex.ru»** nomli qayd qilish sahifasi.

«Регистрация нового аккунта на yandex.ru» deb nomlanadi va uchta «логин и пароль», «идентификационные данные» va «персональные данные» deb nomlangan bloklardan tashkil topgan bo'ladi.

2. Qayd qilish formasi to'ldirilgandan so'ng kerakli tugmachani bosing.

Masalan: «**Народ yandex.ru**» ga, u sahifada **OK** knopkasi joylashgan.

Loginni o'zgartiring va qayd qilishdan o'tishga harakat qiling.

Maslahat: Agar login qabul qilmasa u holda uning oxirgi harflarini yoki ayrim harflarini o'zgartiring.

Agar qayd qilishdan o'tib olsangiz, server sizga sahifa ochib beradi

Maslahat: O'zingizning login va parolingizni alohida bloknotga yozib oling. Masalan: «**Народ yandex.ru**»da qayd qilishdan o'tgach, sizga elektron pochtagizni kiritishingizga imkon beradi. Qayd qilishdan so'ng o'zingizning elektron pochtagizning manzilini izohlang.

Web serverida qayd etilgan kirish va chiqish

Internetga kiring, agar siz internetda bo'lsangiz u holda kirish kerak emas.

Siz qayd qilingan Web-serverga kiring.

Bu Web-serverlar uchun kerakli matnlar maydoniga o'zingizning login va parolingizni kiriting.

Masalan: «**Народ yandex.ru**» ga kirish uchun «**Вход**» degan blokda o'zingizning maydoningizdagi loginni tering va **Парол** deb nomlangan maydondagi parolni, keyin «**Войти**» tugmachasini bosing.

Web serverdan chiqib ketish uchun kerakli knopkani bosing. Shunchaki sharhlovchi oynani berkitib olishi ham mumkin, yoki modem bo'yicha aloqadan uzilishi yoki umuman komputerni o'chirishingiz mumkin.

Agar aloqa modem bo'yicha bo'lmasa, chiqib ketish uchun albatta **ссылка** bo'yicha chiqish kerak, yoki komputerni o'chirish kerak.

Masalan: serverdan chiqishda kirishdan avval loginningiz ostidagi lineyka menyusidagi «**ВЫХОД**» tugmachasini bosing.

7-mashq. www.chat.ru serverida ishlash

Nazariy qism

Интерактив servisga odamlarning muloqotiga Internet orqali IRC-internet **relay chat internet** kiradi. Internetda bir nechta IRC bo'limlari bor.

IRC tugunlari bir-biri bilan sinxronlangan, yaqin serverga ulanib butun IRC ga ulanadi.

Chat.ru serverida quyidagi amallarni bajaring:

1. Internet dasturini yuklang.
2. Internet – provayder orqali muloqot o'rnatish.
3. Manzil panelida qidiruv serveriga **http://www.chat.ru** kiriting.
4. **http://www.chat.ru/rulc/user/html** beti bilan tanishib **chat-server служба** **http://www.chat.ru/rulc/user/negistr.html registratsion** formasini to'ldiring. Registratsiya uchun **зарегистрировать** knopkasini bosing. Registratsiya qilingandan keyin siz chat.ru www betida personal manzil elektron pochta har doimgi ishlovchi bo'lib qolasiz.
5. **Чат-парол** ссылка orqali **chat**ga kiring.
6. **Чат-служба** kirish betida o'zingizni ma'lumotingizning (nomingiz va parolingiz) parametrlarni aniqlab, parametrlar darchasida rang va matnni o'lchami, maksimal qiymati ekranda ochiladi.
7. Muloqot kanallariga kurib, panelni tanlab **вход к чат** knopkasini bosing. **Chat**ga kirib, darchani kattalashtirib boshqa muloqotchilar axborotini ko'rib **сказать** knopkasini bosib hamma chat ishtirokchilarga yuborish mumkin.
8. Ish yakunida matn kiritilib **сказать на прощание** knopkasi bosiladi.

Sinov savollari

1. Kompyuterlar tarmog`idan foydalanish qanday afzalliklarga ega?
2. Qanday kompyuter tarmoqlari mavjud?
3. Lokal va global tarmoqlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?
4. Hozirgi vaqtda ishlatilayotgan qanday kompyuter tarmoqlarini bilasiz?
5. Internet qanday kompyuter tarmogidir?
6. Internet ning asosiy tushunchalari.
7. Internet manzillari qanday belgilanadi?
8. Internet tizimida mijoz-server tushunchalari?
9. Tarmoqda ma'lumotlarni uzatish tizimlaridan qaysi birlarini bilasiz?
10. FTP da fayllar bilan ishlashning qanday buyruqlarini bilasiz?
11. Internetning kommunikatsiya xizmatlariga nimalar kiradi?
12. WEB sahifalarini o`qish vositalaridan qaysi dasturlarni bilasiz?
13. Elektron pochta qanday maqsadda ishlatiladi?
14. Elektron pochta manzillarining umumiy ko`rinishi.
15. **Pine** elektron pochta dasturi xaqida nimalar bilasiz?
16. **Outlook Express** dasturining papkalari.
17. **Outlook Express** dasturining imkoniyatlari.